

**ASOSIY KAPITALGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSIYA
LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH**

Qosimova Lola Sultanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, modernizatsiya qilish va kengaytirishga qaratilgan masalalar ko‘rib chiqilgan. 2020 – 2024 – yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘sinh sur‘atlari dinamikasi, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi tahlil qilingan. Shuningdek, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda diversifikatsiya, ya’ni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsiya loyihasi hujjatlarini puxta tayyorlash ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: asosiy kapital, asosiy kapitalni moliyalashtirish, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar, investitsiya, investitsiya loyihasi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, moliyalashtirish usullari, moliyaviy vositalar.

Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, modernizatsiya qilish va kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy o‘sinhni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu loyihalarni moliyalashtirish usullari va manbalari ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur shart hisoblanadi.

Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning quyidagi turlari farqlanadi: asosiy vositalarga investitsiyalar – binolar, inshootlar, uskunarlar, transport vositalari va boshqa moddiy aktivlarga investitsiyalar; nomoddiy aktivlarga investitsiyalar – dasturiy ta’minot, patentlar, lisenziyalar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk ob’yektlariga investitsiyalar; qurilish–montaj ishlariga

investitsiyalar – yangi ob'yektlar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish bilan bog'liq investitsiyalar.


Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari sifatida ichki manbalar, qarz mablag'lari, davlat byudjeti mablag'lari va xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutadi.

Asosiy kapitalni moliyalashtirishda asosiy moliyaviy vositalardan loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance) halqaro amaliyotda keng tarqalgan usuldir. Bunda investitsiya loyihasining kelajakdagi pul oqimlari kreditni qoplashning garovi sifatida xizmat qiladi. Uning balansdan tashqari moliyalashtirish va risklarni taqsimlashdir, ammo yuqori xarajatlarni ham hisobgan olish zarur. Aksiyalar chiqarish (Equity Financing) ham moliyalashtirishning muhim manbasidir, bunda investorlar korxonaning ulushini sotib olishadi. Afzalliklari qarz yukining yo'qligi va kapitalning kengayishidir, lekin mulk huquqining kamayishi va boshqaruvga aralashuv kabilar ham bor. Obligatsiyalar (Bonds) qarz majburiyatlari bo'lib, investorlarga ma'lum bir muddat davomida foiz to'lanadi. Bunday vosita yirik mablag'larni jalb qilish imkoniyatini yaratadi va bank kreditlariga nisbatan pastroq foiz stavkalarida beriladi. Kraudfanding (Crowdfunding) internet platformalari orqali ko'plab kichik investorlardan mablag' yig'ish bo'lib, uning afzalligi katta miqdordagi kapital talab etilmaydi, aholi orasida loyiha haqida tasavvur paydo qilish mumkin. Kamchiligi muvaffaqiyatsizlikka uchrash xavfi yuqori, barcha talabgor loyihalar ham qabul qilinmaydi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida bir necha muhim bosqichlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: biznes-rejani ishlab chiqish, loyiha maqsadlari, vazifalari, moliyaviy ko'rsatkichlari va xavf-xatarlarini aniq belgilab berish; moliyalashtirish manbalarini aniqlash, eng maqbul moliyalashtirish manbalarini tanlash (ichki, qarz, davlat, xorijiy); moliyaviy modelni yaratish, loyiha pul oqimlarini, daromadlilikini va qoplanish muddatlarini baholash; investorlar bilan muzokaralar olib borish va bunda moliyalashtirish shartlarini muhokama qilish; shartnomalarni tuzish, moliyalashtirish shartlarini rasmiylashtirish; monitoring va nazorat, loyiha

amalga oshirilishini va moliyaviy ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish.

O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, valyutani erkinlashtirish, soliq islohotlari, biznesni ro'yxatga olish va lisenziyalash tartiblarini soddalashtirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish kabi choralar ko'rilmogda. Shuningdek, mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan bo'lib, ularda investorlar uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratilgan. Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha agentlik faoliyat yuritmoqda, u xorijiy investorlarga O'zbekistonda biznes yuritish bo'yicha maslahatlar beradi va ularga yordam ko'rsatadi. Natijada, 2024-yilda iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 493,6 trln. so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan real hisobda 27,6 foizlik o'sishi markazlashtirilmagan investitsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 32,8 foizga o'sishi (441,8 trln. so'm) hisobiga ta'minlandi. So'nggi besh yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi deyarli 2,3 martaga ko'payib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu davrlarda o'sish sur'ati 32 foizli bandga oshgan. Jumladan, 2021–2022–yilllarda tegishlicha 102,9 foiz va 100,2 foiz o'sish kuzatilgan bo'lsa, so'nggi ikki yilda yuqori o'sish sur'atlari – 123,4 foiz va 127,6 foiz o'sish qayd etilgan (1–rasm).




1–rasm. 2020–2024–yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘rnatilish sur‘atlari dinamikasi¹

Bunday dinamika yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlarning ko‘payib borayotganligini bildiradi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va intensiv texnika–texnologiyalarni joriy qilish nuqtai nazaridan ijobiydir. Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat kafolatlari va infratuzilmani rivojlantirish kabi choralar ko‘rilishi mumkin. O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

2020–2024–yillarda markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi kamayib bormoqda va aksincha, markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi sezilarli darajada yuqori bo‘lmoqda. 2024–yilda markazlashtirilgan investitsiyalarning jami o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 2020–yildagi 19,9 foizdan 2024–yilga kelib 10,5 foizgacha qisqargan bo‘lsa, markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushi 80,1 foizdan 89,5 foizgacha oshgan (2–rasm).

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining tegishli yillardagi statistik ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2–rasm. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi (foizda)²

Markazlashtirilgan investitsiyalar hajmining real o'sishida sekinlashish kuzatilgan bo'lsa-da, uning tarkibidagi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan qilingan investitsiyalar qariyb 1,6 barobarga oshgan. Markazlashtirilmagan investitsiyalarning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining 59 foizga oshganligi hisobiga shakllangan. Bunday tendensiya investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarida davlat byudjeti mablag'lari emas, balki xususiy va boshqa manbalarning (xususiy biznes, xorijiy investorlar, aholi mablag'lari, bank kreditlari, korxonalarning o'z mablag'lari) ustunligini namoyon qiladi. Shuningdek, markazlashtirilmagan investitsiyalar ulushining yuqori bo'lganligi xususiy tadbirkorlik faollashganini, investorlar mamlakat iqtisodiyotiga ishonch bildirayotganini hamda davlat rolining kamayishi va moliyalashtirishning bozor mexanizmlari kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Eng muhimi, markazlashtirilmagan investitsiyalar egasi mablag'ini faqat samarali loyihalarga sarflaydi, xarajatlarni tejaydi, natijaga e'tibor qaratadi va bu umumiy investitsiya samaradorligini oshiradi.

Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda diversifikatsiya, ya'ni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsiya loyihasi hujjatlarini puxta tayyorlash; risklarni boshqarish, ya'ni loyiha

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tegishli yillardagi statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

risklarini baholash va ularni kamaytirish choralarini ko'rish, investorlar bilan munosabatlarda shaffoflikni ta'minlash, yangi moliyalashtirish usullaridan foydalanish (kraudfanding, blokcheyn) maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. William B.Brueggeman, Jeffrey D.Fisher. Real Estate Finance and Investments. Seventeenth Edition. Published by McGraw Hill LLC, 1325 Avenue of the Americas, New York, NY 10121. Copyright ©2022 by McGraw Hill LLC. All rights reserved. Printed in the United States of America. – 833 p.
2. Казак А.Ю. Финансирование реальных инвестиционных проектов. Монография. – Екатеринбург: АМБ, 2003. – 177 с.
3. Марковская Е.И. Организация финансирования инвестиционных проектов: теория и практика. Монография. – СПб.: Санкт–Петербургский государственный политехнический университет, 2013. – 183 с.
4. Томкович А.В. Финансирование инвестиционных проектов. Учеб. пос. – Калининград: ФГБОУ ВО «КГТУ», 2023. – 82 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2020–2024–yillardagi statistik ma'lumotlari.